

## STRUKTUR SINTAKSIS ASOSLARI

**Raximjonova Gulnoza Shoxnazarovna**

*Farg`ona davlat universiteti. Sirtqi bo`lim*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada struktur tilshunoslik va uning shakllanishi, sintaktik strukturalar va sintaktik munosabat, gapning bevosita ishtirokchilar va transformatsion metodlar asosidagi tahlili hamda gap komponentlarining struktur-funksional tahlili qisqacha ma`lumot beriladi.*

**Kalit so`zlar:** *Sintaksis, tilshunoslik, struktura, morfologiya, metod.*

### KIRISH

Ravshanki, fandagi har qanday yangilik ham o`z-o`zidan paydo bo`libqolmaydi. Uning vujudga kelishi uchun muayyan asos bo`lmog`i lozim va bu tayanch vazifasini bajaradi. Struktur tilshunoslikning shakllanishi ham ana shu tamoyil bilan uzviy bog`liqdir. Boshqacha aytganda, uning shakllanishi asosida an`anaviy tilshunoslik yotadi. Fan va texnikaning uzluksiz taraqqiyoti tilshunoslik fanida ham matematik metodlarning qo`llanilishiga katta ehtiyoj tug`irdi. Bu esa, o`z navbatida, an`anaviy tilshunoslikda qo`llanilib kelayotgan til materialining tahlili metod va qoidalarini zamon taraqqiyoti va talablari bilan moslashtirishga undadi. Ana shu tarzda vujudga kelgan struktur tilshunoslik yillar mobaynida hayotga tatbiq etila boshladi va bu jarayonda salmoqli nufuzga ega bo`ldi. Ayniqsa, faktik til materiali tahliliga struktur-sistem nuqtai nazaridan yondashilayotgan hozirgi davrda unga bo`lgan ehtiyoj va e`tiboryanada oshdi [1].

### ASOSIY QISM

Til birliklarining ma`noga ta`sir etmay, qo`llanishi qurshoviga ko`ra mushtarak bo`lishi *erkin almashinuv distributsiyasi* deb ataladi: zichlanmoq – zichlashmoq; nonpaz – novvoy. Distributsiyaning mazkur turini sintaktik strukturalar sathida so`zlarning morfemalar bilan almashinuvida ham qayd etish mumkin: ukam uchun oldim – ukamga oldim.

Distributiv tahlil metodi til birliklarining sintagmatik qatorda qaytarzda o`rinlashishi haqida mukammal va aniq ma`lumot bera oladi. Biroq uning ayrim zaif tomonlari ham mavjud. Masalan, mazkur metod orqali so`z birikmalari yoki gapning muayyan nutq muhitida qo`llanishining distributiv xususiyatlarini yoritib berish qiyin. Shu bois sintaktik strukturalar materialiga bemalol qo`llash mumkin bo`lgan yangi tahlil metodiga ehtiyoj tug`ildi. Mazkur metodni amerikalik strukturalistlar *bevosita ishtirokchilar metodi* deb nomladilar.

Sintaktik qurilmaning bevosita ishtirokchilarga bo`linishi metodi lingvistik adabiyotlarda qisqa qilib BI metodi deb yuritiladi. Mazkur metod distributiv tahlil metodining ba`zi zaif tomonlarini to`ldirish, xususan, sintaktik strukturalarning formal-struktur tahlili uchun joriy etildi. Bu metod haqida dastlabki tushuncha L.

Blumfeldning «Til» asarida keltirilgan edi. Biroq uning mukammal tavsifi amerikalik tilshunoslar R. Uells hamda Yu. Nayda tomonidan berildi. BI tahlilini distributiv tahlil metodining bevosita davomi deb atash mumkin. Chunki distributiv tahlil metodi ham o‘zining keyingitaraqqiyoti bosqichiga kelib, nafaqat fonema va morfemalarning, balki so‘zlarning ham sintagmatik qator zanjiridagi o‘rnini va ularning boshqa so‘zlar bilan munosabatini ko‘rsatib bera olgan edi. Masalan:

Juda chiroyli = V (ravish) + A (sifat) Juda chiroyli saroy = BAN

Bunda asosiy unsur *saroy* (N) hisoblanadi. Chunki undan oldin kelayotgan ravish ham, sifat ham shu so‘zni izohlash uchun qo‘llanmoqda. Demak, bu o‘rinda N hokim unsur sanaladi va shu bois V va A aniqlovchilarini talab qila oladi. Bu esa formulaga quyidagi tartibda o‘zgarish kiritishni taqozo etadi: VA=N. Ana shu tarzda biri ikkinchisi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan til birliklari bog‘lanishidan nisbatan kattaroq sintagmatik butunlik hosil bo‘ladi [3].

Sintaktik strukturani gorizontaal chiziq bo‘ylab BI larga bo‘lish *analiz* deb ataladi. Agar uning nimalardan tashkil topayotganini aniqlamoqchi bo‘lsak, tahlilni eng kichik bo‘linmas birliklarning o‘zaro birikuvidan boshlamoq kerak bo‘ladi. Bunda eng avval o‘ziga xos sintagmatik guruhlar shakllanadi va tahlilning oxirgi bosqichida yaxlit holdagi qurilma vujudga keladi. Bu usul BI *sintez*i deb yuritiladi. Ammo shuni alohida ta’kidlash kerakki, BI analizida ham, sintezida ham tahlilning har bir bosqichida faqat jumlani ikkiga bo‘lish, yoki faqat ikki unurni birlashtirish mumkin. Aks holda BI tahlili nuqsonli bo‘ladi.

BI tahlili metodidan fonologiya va morfologiya doirasida olib boriladigan tadqiqotlarda ham foydalanish mumkin bo‘lsa-da, bunday imkoniyat qo‘llanilganini ayrim tilshunoslardagina kuzatamiz. Mazkur metod keyingi paytlarda asosan sintaktik strukturalarga nisbatan qo‘llana boshladi. Undan fonologiya va morfologiyada qariyb foydalanilmayapti. Sintaktik strukturalarning BI tahlili metodi vositasida tadqiq etilishi, an’anaviy gap bo‘laklarini belgilash metodidan farqli ravishda, talay afzalliklarga ega. Birinchidan, BI tahlili metodi sof lingvistik tamoyillarga asoslanadi. Ikkinchidan, u mantiqiy qoidalar iskanjasida emas. Uchinchidan, uning yordamida jumla komponentlarining barchasi bir-biri bilan qaydarajada sintagmatik bog‘lanishli ekanligi aniq va ravshan ko‘rsatib beriladi. To‘rtinchidan, jumlaning sintaktik shakllanishining analizini ham, sintezini ham mukammal namoyon etish mumkin.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Transformatsion metod distributiv hamda BI tahlili metodlarining barcha yutuqlarini o‘zida mujassamlashtiradi va shu bilan birga, quyidagi shartlari mavjudligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi [4]:

1. Muayyan tayanch strukturaga asoslanish.
2. Berilgan gapning ma’nosini to‘liq saqlagan holda sintaktik shaklini yangilash.
3. Tahlil jarayonida jumlaning ma’nosiga ta’sir etmaydigan o‘garishlar sodir etilishi mumkinligi.

Transformatsiyaning bir necha turi mavjud bo‘lib, ulardan nominalizatsiya transformatsiyasi, aktiv qurilmaning passiv qurilmaga aylantirilishi transformatsiyasi, almashinuv (substitutsiya) transformatsiyasi, kontaminatsiya hamda konversiya, shuningdek, so‘roq hamda bo‘lishsizlik (inkor) transformatsiyalari ko‘proq qo‘llanadi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov G‘.A. Qo‘shma gap sintaksisi. Toshkent, 2014.
2. Berdialiev A. O‘zbek tili sintaktik paradigmikasi asoslari (pedagogika institutlari o‘zbek filologiyasifakultetlari studentlari uchun maxsus kurs). Toshkent, 2011.
3. Khoshimova, S. K. (2022). PARABLE NARRATION IN A. BARIKKO'S NOVEL " SILK". *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 982-987.
4. Khashimova, S. K. (2022). THE TEACHING OF LITERARY DISCIPLINES IS THE MAIN FACTOR AFFECTING EDUCATION. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 313-316.
5. Шарипов, Ш. П., & Абдимуминов, Э. (2015). МЕТОДЫ РАСЧЕТА КОЛЬЦЕВЫХ УСИЛИЙ И ПЕРЕМЕЩЕНИЙ В ПОДЗЕМНЫХ ТРУБАХ. In *Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях* (pp. 28-29).
6. Abdimuminov, E., Sharipov, S., & Irgashev, D. (2022). MASHINASOZLIKDA ISHLATILDIGAN REZBANI BIRIKMALARNI MUSTAHKAMLIKKA HISOBLASH. *Science and innovation*, 1(A6), 161-167.
7. Akbarova, Z. A., & qizi Giyosova, V. A. (2023). Extralinguistic Means Of Expressing Appeal In The Uzbek Language. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 17, 9-13.
8. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. *Science and innovation in the education system*, 2(5), 125-129.
9. кизи Гиёсова, В. А. (2022). ТОТЕМИСТИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. *THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(1), 133-139.
10. Nodira, U. (2023). Theory of Cognitive Linguistics. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(4), 147-148.
11. Murodova, N. I., & Djumabayeva, J. S. (2017). Translation problems of enantiosemy in fiction from English into Russian. *Russian Linguistic Bulletin*, (4 (12)), 12-15.
12. Murodova, N., & Mo‘minova, M. (2023). INVESTIGATION OF DETECTIVE FICTION AND ITS TYPES. *Science and innovation in the education system*, 2(1), 48-54.

13. Баёнханова, И. Ф. (2023). МУОМАЛА МАДАНИЯТИДА НУТҚИЙ МУЛОҚОТ ОДОБИНИ ИФОДАЛОВЧИ МАҚОЛЛАРИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, (1), 96-100.

14. Buzrukova, D. M. (2023). Muhabbat" konseptining lingvomadaniy o'ziga xosligi. *FarDU. ILMIY XABARLAR*, 1, 318-321.

